

## OILADA BOLALARINI UMUMINSONIY VA MA'NAVIY QADRIYATLAR ASOSIDA TARBIYALASHNING SAMARALI USULLARI

**M. Ahmadbekova**

Farg'ona davlat universiteti sirtqi bo'lim ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini katta o'qituvchisi

**M. Maziayeva**

Farg'ona davlat universiteti sirtqi bo'lim ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini o'qituvchisi

E-mail: [muqaddasxonmaziayeva@gmail.com](mailto:muqaddasxonmaziayeva@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada axloqiy-estetik qadriyatlarni shakllanish masalasiga keng e'tibor qaratilgan bo'lib, unda oilada ma'naviy tarbiya masalalari va umuminsoniy qadriyatlarni atroflicha yoritilgan. Oiladagi hayot tarzi oilaviy an'analaraga yangicha yondashuvlar shakllantirish va milliy qadriyatlarni hayotga tatbiq qilish tahlili qilingan.

**Kalit so'z:** oila, ota-ona, bolalar, umuminsoniy qadriyatlarni, tarbiya, jamiyat.

### KIRISH

Yurtimizda oila avlodlar davomiyligi ta'minlanadigan, farzandlar kamolga yetadigan mo'tabar dargoh sifatida e'zozlanadi va qadrlanadi. Shu boisdan ham mamlakatimizda oilaga jamiyatning muhim bo'g'ini sifatida qaralib kelinmoqda. Bugungi kunning asosiy vazifalaridan biri sog'lom oilaviy muhitni shakllantish va sog'lom oilada sog'lom avlodni kamol toptirish masalasi davlatimiz siyosatining ustvor vazifalariga aylanrilgan. Chunki, oila sog'lom va barhayot bo'lsa, jamiyat mustahkam bo'ladi. Jamiyat mustahkam bo'lsa, mamlakat barqaror va odod bo'ladi.

Kelajagimizning qanday bo'lishi hozirgi kunda biz tarbiyalayotgan yoshlarga bog'liq. Bunday ulkan vazifani amalga oshirishruvchi, moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratuvchi asosi oiladir. Oila jamiyatning boshlang'ich ijtimoiy bo'g'ini sifatida murakkab tarkibga ega bo'lib, u o'z faoliyatida oila a'zolarining ehtiyojlari, qiziqishi, iqtidori va qobiliyati, turli faoliyatning maqsad va vazifalarigagina emas, balki tarbiyaviy faoliyatlar ham unda aks ettiriladi. Oilaning tuzilishi va vazifasidan u jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy o'zagi ekanligini ko'rishimiz mumkin. Yosh bolalar haddan tashqari o'z oilasiga bog'langan bo'ladilar. Chunki, oila bola uchun yashashi, yeb-ichishi, kiyinoshini jismoniy o'sishi va sog'ligi haqida quyg'uradigan,

ularni his-tuyg‘ularini hisobga oluvchi, ularni kamol topishlari uchun shart-sharoit yaratuvchi maskandir.

Oila, bu-o‘z bolalari hayotida doimiy ravishda ishtirok etadigan, ularni o‘qitadigan, qarorlar aqabul qiladigan odamlar jamoasidir. Demak, oilalar sog‘lom, bilimli va mehribon, mustaqil fikrlovchi bolalarni tarbiyalashning muhim omilidir. Oilada bolalarga ota-onalar tomonidan umuminsoniy va madaniy qadriyatlar o‘rgatilib boriladi. Madaniy saviyasi yaxshi rivojlangan oilalar bolalarga ta’limtarbiya berish uchun maxsus kurslarga qanaydilar yoki ko‘plab kitoblar o‘qiydilar. Oilada tarbiya va qadriyatning eng muhim yo‘nalishlaridan biri mehnat tarbiyasidir. Mehnat tarbiyasi ota-onalar yoki katta yoshlilarning namunasi asosida tashkil etidi. Bolalar mehnat jaroyonida ota-onalar bilan mazmunli va maroqli mehnat qilishlari asosida olam borliqni undagi bog‘liqlikni o‘rganadilar. Bolalar borliqni oiladagi madaniy muhit orqali o‘rganadilar. Oilada uyushtirilgan davra suhbatlari ham bolalar uchun alohida diqqatga sazovordir. Agarda oilada biror kasb-hunar bilan shug‘ullanishsa, bu bolalar uchun katta hayot tajribasiga ega ekanligini ko‘rish mumkin. Chunki bolalar hamma narsani taqlid yo‘li bilan o‘rganadilar. Ota-onalar qanchalik ma’naviy boy, e’tiqodli va yuqori ma’lumotga ega bo‘lsalar, shu darajada takomillashgan uslub orqali o‘z farzandlarini tarbiyalaydilar. Oila a’zolarining turmush va hayotiy tajribalari, madaniy saviyalari qanchalik boy bo‘lsa, ular bolalar bilan shu darajada yaxshi muloqotda bo‘ladilar va bolalarni qiziqishlarini o‘stirib boradilar. Xalq donishmandligida ota-onalar haqida, ularning bolalari bilan munosabatlari, onanaing ma’naviy tarbyaviy ta’siri va donoligi atroflicha yoritilagan. Oilada bolalarga kichik yoshda boshlab, “suvga tuflash va uni isrof qilish gunoh bo‘ladi” deb tarbiya berishgan. Odob-ahloq qoidalariga ko‘ra bolalaga nonga hurmat ham oilada berilgan. Axloqiy fazilatlar bola aqlini tanimasdan, gapirishni bilmasdan oldin ota-oanlar turmush tarzida ifodalangan.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI**

Inson ma’naviyatining poydevoti oila muhitida shakllanib boradi. Jamiyat hayotida har bir oilani mustahkamlash uchun eng avvalo yoshlarga umuminsoniy qadriyatlar va axloqiy madaniyatni yoshlikdan o‘rgatib boorish muhim ahamiyat kasb etadi. Oila yoshlar uchun eng asosiy tarbiya muhiti bo‘lib, bu muhitda shaxs kamoloti uchun muhum hisoblangan xulq-atvor, iroda, xarakter va dunyoqarash shakllanadi. M. Z. Rejaboyeva, Sh. Sh. Shomansurovlar “Sog‘lom farzand-oila quvonchi” kitobida “oila sog‘lom ekan-jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan-mamlakat barqaror va oboddir” degan fikrni ilgari surganlar. A.Q. Munavvarov “Oila pedagogukasi” qo‘llanmasida oilaviy tarbiyada ota-onaning shaxsi muhimligi, ular ma’naviy jihatdan yuksak axloqiy pok, odobli va madaniyatli bo‘lishlari kerakli haqida fikr yuritgan.

## NATIJALAR

Oilalaviy tarbiyada ota-onanaing shaxsi ham muhimdir. Ota-onalar bolalarni to‘g‘ri tarbiyalashlari uchun avvalo o‘zlari tarbiyalangan bo‘lishlari shart. Axloqiy tarbiyaga oilada asos solinadi. Bu o‘rinda ota-ona bosh namuna hisoblanadi. Oilada bola to‘g‘ri tarbiyalansa, jamiyatning haqiqiy fuqarosi yetishadi. Ota-onalar o‘z farzandlarini aqli, bilimli, sog‘lom va ma’nan barkamol qilib tarbiyalashlari kerak.

## XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, oilada ota-onalar o‘z farzandlari oldida ma’sul bo‘lib, ota-onaning shaxsiy namunasi, mehnatsevarligi, axloqiy fazilatlari astasekin ularning farzandlariga o‘tib, ularning barkamol inson bo‘lib voyaga yetishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-onalarning farzand oldidagi burchi haqida sharqona tarbiyaning yozilmagan qonunlari ishlab chiqilgan bo‘lib, bunga ko‘ra ota-ona chaqaloq tug‘ilgan kundan boshlab uning tarbiyasi bilan shug‘ullanishi, unga chiroyli ism qo‘yishi, voyaga yetgach unga birir kasb-hunnar o‘rgatishi, balog‘atga yetgach uni to‘y qilib uylantirishi yoki turmushga berishi oilaviy qadriyatlardan biridir. Qadimdan bolalar oilada ota-onalari-yu, bobo-buvilari tarbiyasi orqali umuminsoniy va madaniy qadriyatlarni o‘rganganlar. Xalq madaniyatining eng muhim belgilaridan xushmomillalik, hozirjavoblik, kattalarga salom berish, kattalarni hurmat qilish kichiklarga izzatda bo‘lish kabi fazilatlaRI, o‘zaro hurmat rishtalari oilada o‘rgatilgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

- 1.”Sog‘lom farzand-oila quvonchi ”M.ZRejaboyeva, SH. SH. SHomansurov. TOSHKRNT”O‘ZBEKISTON”2015.
- 2.”Oill pedagogikasi”A.Q.Munavvarov.